

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT

**Qo'lyozma huquqida
UO'K:336.717.061(575.1)**

ANVAROV NOZIMJON MAXSUDBEK O'G'LI

**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN REAL SEKTOR KORXONALARINI
KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari nomzodi, professor S.O.Komolov

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

	KIRISH.....	
I-bob	TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN REAL SEKTOR KORXONALARINI KREDITLASHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI.....	
1.1.	Real sektor iqtisodiyoti tushunchasi va uning mohiyati.....	
1.2.	Iqtisodiyotning real sektori tarkibiy tuzilishining mazmun-mohiyati ...	
1.3.	O‘zbekistonda reyol sektor korxonalarini faoliyatini takomillashtirishda moliya-kredit mexanizmidan foydalanish.....	
	<i>Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	
II-bob	TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN REAL SEKTOR KORXONALARINI KREDITLASHNING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI.....	
2.1.	Real sektor korxonalari innovatsion salohiyatini oshirishga ta’sir qilyvchi omillar.....	
2.2.	Iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tahlili.....	
2.3.	Toshkent viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishida so‘nggi yillardagi innovatsiyalar ta’sirini baholash tahlili.....	
2.4.	Tijorat banklarida reyol sektor korxonalarni kreditlashning ekonometrik tahlili.....	
	<i>Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	
III-bob	O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TIJORAT BANKLARINING REAL SEKTOR KORXONALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	
3.1.	Reyal sektor korxonalarni rivoklantirish uchun jalb etilgan kreditlaning joriy holati tahlili.....	
3.2.	Real sektor korxonalarini kreditlash amaliyotining xorij tajribasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	
	<i>Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....</i>	
	XULOSA.....	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlash orqali o'z daromadlarini oshirish bilan bir qatorda ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta'minlamoqda. Faol kreditlash orqali ortirilgan tajriba shuni ko'rsatadiki, bank kredit portfelining sifati, diversifikatsiya darajasi va shu orqali rentabelligi yuqori bo'lgan har bir bank mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi drayverlar vazifasini bajaradi. "Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) 2024-yilda Markaziy Osiyoga sarmoya kiritish bo'yicha rekord darajaga yetdi va mintaqaning oltita davlatidagi 121 ta loyihaga 2,26 mlrd. yevro mablag' kiritdi. Bu 2023 yilda investitsiya qilinganidan deyarli ikki baravar ko'pdir. Bundan tashqari, YeTTB qo'shma moliyachilardan 784 million yevro jalb qildi va mintqa iqtisodiyotiga jami sarmoyani 3 milliard yevrodan oshib ketdi"¹. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun banklar tomonidan joriy etilgan yangi moliyaviy mahsulotlar va texnologiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, kreditlash risklarini boshqarishning ilg'or usullari jahonda keng tarqalgan.

Jahonda va rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklarining real sektorni kreditlash amaliyoti doimo takomillashib bormoqda. Iqtisodiyotning real sektor tarmoqlarini rivojlantirishda tijorat banklarida kredit operatsiyalarining samaradorligini oshirish va yangi kredit mahsulotlarini mijozlarga o'z vaqtida hamda nisbatan arzon va sifatli ta'minlash, taqdim etilayotgan kreditlar mijozning birlamchi talabi bilan o'z vaqtida berilishi, o'z navbatida uning qaytarilishi, bu jarayonda kredit to'lovlari bilan bog'liq muammoli holatlar va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili, rivojlanayotgan davlatlarda moliyaviy resurslarning yetishmasligi bilan bog'liq holatlar, real sektor korxonalarini kreditlashning zamonaviy shakllarini tadqiq qilish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan real sektor korxonalarini kreditlash iqtisodiy o'sishning asosiy yetakchi kuchlaridan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat

¹ <https://www.ebrd.com/home/news-and-events/publications/financial-report/financial-report-2024.html>

kasb etadi. 2020-2024 yillarda O‘zbekistonning «Barqaror rivojlanish strategiyasi» doirasida iqtisodiyotning real sektorini kreditlashni kengaytirish, iqtisodiy o‘shishning asosiy indikatorlaridan biri sifatida e’tirof etilgan². “2023-yil yakunlariga ko‘ra, real sektorni kreditlashda banklarning kredit portfeli 25 foizga o‘sd, ammo bu o‘shishning qisman cheklanganligi banklar tomonidan yuzaga kelgan risklar va kreditlar sifatining pastligi bilan izohlanadi. Shu bois, tijorat banklari tomonidan real sektorni kreditlash amaliyotini takomillashtirish, yangi moliyaviy instrumentlarni tatbiq etish va risklarni boshqarish mexanizmlarini samarali joriy etishning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. 2025-yilda bu 300 trln. so‘mdan oshishi prognoz qilinmoqda”³. Shu bilan birga, kreditlash jarayonidagi ko‘plab qiyinchiliklar, jumladan, real sektor korxonalarining to‘lov qobiliyatiga bo‘lgan ishonchsizlik, banklarning kredit siyosatidagi noaniqliklar, yuqori foiz stavkalari, kredit ta‘minoti masalalari va xavf omillari, bu sohada samarali va barqaror rivojlanishni ta‘minlashda jiddiy to‘siqlar yaratadi. Shuningdek, banklarning real sektor korxonalariga taqdim etadigan moliyaviy resurslari ko‘pincha iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda juda cheklangan bo‘lib, bu holat esa korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etish kabi muhim jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-son “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va tijorat banklarini real sektor korxonalarini kreditlashga qaratilgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.02.2022 yildagi 83-son <https://lex.uz/docs/-5870397>

³ <https://cbu.uz/e/2024yil-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf>

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.